



TILSHUNOSLIKDA KONSEPT IFODASI VA UNING TURLI TILLARDA IZOHLANISHI

Turg'unova Farida Alisher qizi

Farg'ona davlat universiteti magistranti

Faridaturgunova737@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7113181>

ARTICLE INFO

Received: 20th September 2022

Accepted: 22nd September 2022

Online: 26th September 2022

KEY WORDS

konsept, kognitiv tilshunoslik, kognitiv grammatika, lingvokulturologiya, tushuncha, mantiqiy kategoriya.

ABSTRACT

Bugungi kunda zamonaviy tilshunoslikning dolzarb mavzularidan biri bu-konsept tushunchasidir. Bu atama kognitiv tilshunoslikning muhim kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada konsept mavzusiga asosiy urg'u berilgan. Konsept atamasi kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyat uchun ham umumiy atama bo'lsada, ikkala fan uchun ham ikki xil tushunchani anglatadi.

Tilning paydo bo'lishi masalasi insoniyatni qadimdanoq qiziqtirib keladi. Bu masala faqat tilshunoslikning emas, boshqa ko'p fanlarning: antropologiya, psixologiya va etnografiya kabi fanlarning ham o'rganish obyektidir.

Xozirgi davrga kelib mamlakatimizda tilga antroposentrik yondashuv tilshunoslik sohasining eng so'ngi yutuqlarini o'zida mujassam etib, mustaqil paradigm sifatidagi maqomini tobora mustahkamlab bormoqda. Ko'plab tadqiqotchilarning e'tirof etishicha, kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya antroposentrik paradigmaning yetakchi yo'nalishlari hisoblanadi. O'tgan asrning so'ngi choragida o'zining ilk qadamlarini qo'ygan kognitiv tilshunoslik XXI asr boshidayoq lingvistikaning peshqadam sohalaridan biriga aylanib ulgurdi.

Zamonaviy kognitiv tilshunoslikning vujudga kelishi amerikalik olimlar J.Miller, J.Bruner, J.Lakoff, R.Langaker, R.Jakendoff va boshqalarning ilmiy ishlari bilan

bog'lanadi. Kognitiv tilshunoslik tilni falsafadagi bilish nazariyasi bilan bog'lab, uning hosil bo'lishidagi psixologik, biologik va eyrofiziologik jihatlarning ijtimoiy, madaniy hodisalar bilan uzviy aloqasini ilmiy tadqiq etuvchi soha hisoblanadi. Kognitiv so'zi inglizcha "cognize-bilmoq, anglamoq, tushumoq" demakdir.

Kognitiv tilshunoslik "chegaradosh fan" bo'lib, kognitologiya, kognitiv psixologiya, psixolongvistika, lingvistika kabi sohalar to'qnashuvida vujudga keldi. 1975-yilda J.Lakoff va S.Tompsonning maqolasida "kognitiv grammatika" termini paydo bo'ldi va 80-yillarda yevropaning an'anaviy tilshunosligida kognitiv tilshunoslik qaror topdi. Rus tilshunosligiga esa kognitiv lingvistika V.I.Gerasimovning ("Новое в зарубежной лингвистике", 1988) ilmiy maqolasi bilan kirib keldi. Rus tilshunosligining yana bir atoqli vakili E.S.Kubryakova quyidagicha fikr bildiradi: "Kognitologiya ko'p qirrali fan sohalaridandir. Uning doirasida



shakllangan tilshunoslik, o'z navbatida, murakkab vazifa ijrosini ko'zlaydi.

O'zbek tilshunoslaridan hisoblangan Sh.S.Safarovning fikriga ko'ra, "Kognitiv tilshunoslikning vazifasi til yordamida bilim olish va saqlash, tilni amalda qo'llash, hamda uzatish, umuman til tizimi va tarkibini inson miyasidagi in'ikosi sifatida tafakkur bilan bog'lab, chuqur ilmiy tadqiq etish hisoblanadi.

Professor A.Mamatov til tizimini kognitiv jihatdan tahlil qilish borasida fikr yuritar ekan, shunday deb yozadi: "Kognitiv fan kognisiya bilan shug'ullansa, kognitiv tilshunoslik kognisiyaning, ya'ni bilishning tilda aks etishini, verballashuvini tadqiq qiladi. Tilga bo'lgan kognitiv yondashuv – bu til shaklining oxir-oqibat inson ongi, fikri, bilish strukturalarining aks ettirilishidir. Kognitivlik o'z tuzilishiga ko'ra insonning bilish faoliyatiga tayangan barcha tipdagi bilimlarning tizimlashishini ifodalaydi.

XX asrning oxirlariga kelib, til va madaniyat muammosi masalasini o'rganishni maqad qilgan-tilshunoslikning yangi sohasi lingvokulturologiya jadal rivojlandi.

Lingvokulturologiya-madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlari o'rtasida umumlashma fan bo'lib, til va madaniyatning o'zaro ta'siri va bog'liqligi, bu bog'liqlikning shakllanishi hamda yaxlit bir sistema sifatida til va tildan tashqarida aks etishi kabi hodisalarni o'rganish bilan shug'ullanadi.

Lingvokulturologiya o'rganish obyektiga ko'ra madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlariga birmuncha yaqin, biroq mazmun-mohiyati, o'rganish obyektiga bo'lgan yondashuviga ko'ra farqli deb aytish mumkin. Uning chegaralanuvchi maqomi shundan iboratki, u xalq madaniyatining tilda namoyon bo'lishi hamda ifodalanishi,

til mentaliteti, milliyligi, til ruhiyati bilan bog'liq ravishda nutqiy muloqotni tashkil etishdagi milliy-madaniy spesifik qoidalarni o'rganadi hamda millatning tilda aks etgan o'ziga xos milliy til xususiyatlarini aniqlash hodisalarini tadqiq etish bilan shug'ullanadi.

Konsept atamasini ilk bor 1928-yilda rus tilshunosi Askoldov o'z maqolasida qo'llagan. U konseptga "Bu bir tur yoki boshqa turdagi tushunchalar haqida fikrlash jarayonini o'zida aks ettiradigan birlikdir" deb izoh bergan. Ammo shunga qaramay ushbu atamaga XX asrning 70-yillarida ham chuqur izoh talab qiladigan muammo sifatida qaralib kelindi.

Konsept tushunchasining tilshunoslar iste'moliga kirishi 80-yillarda ingliz olimlari Cheyf, R.Jakendof, Lakoflarning asarlari bilan bog'liqdir. Aynan o'sha matnlarda konseptualizatsiya, konseptual mohiyat atamaları uchrab turadi. Konsept tushunchasining lug'aviy ma'nosi ustida ham ko'pgina olimlar har xil fikrlarni bildirishadi. Unga ko'ra mantiqiy kategoriya, amaliy falsafa tushunchasi, milliy mentalitetning asosiy birligi sifatida qaraydiganlar ham bor.

"Konsept" - lotincha "conceptus" so'zidan olingan bo'lib, "tushuncha" ma'nosini bildiradi. Kognitiv atamalar lug'atida esa konsept atamasiga quyidagicha ta'rif beriladi: konsept bizning tafakkurimizdagi aqliy va psixik resurslarning inson bilim va malakalarida aks etishiga xizmat qiladigan tushunchadir. "Konsept" atamasi zamonaviy tilshunoslikda biror bir leksik birlikning tafakkurdagi obrazini ifodalash uchun qo'llaniladi. Kundalik ilmiy ijodda esa konsept atamasi "tushuncha" bilan sinonim sifatida qo'llaniladi.

Garchi konsept atamasi kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya uchun



ham muhim kategoriya hisoblansada, uning ushbu fanlardagi izohi farqlidir. Ushbu termin tilshunoslikda o'tgan asrning 80-yillariga qadar tushuncha so'ziga sinonim sifatida ishlatilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib uning izohi tushuncha terminiga nisbatan kengayganini ko'rish mumkin.

Konsept tushunchasi deyarli barcha atoqli tilshunoslar tomonidan keng tadqiq qilinib, ularning barchasi ushbu tushunchani turlicha individual tarzda talqin qilishadi. Y.A.Stepanov va S.A.Askoldovning fikri bir biriga juda yaqindir, ular konseptni " mantiqiy kategoria " sifatida talqin etishadi. Ya'ni Askoldovning fikricha "konsept bu madaniyat elementlaridan birining kishi tafakkurida shakllangan shaklidir, xuddi shu shaklda madaniyat kishining mental dunyosiga kirib boradi". Yana bir rus tilshunosi V.A.Maslova konsept ma'nosiga ko'p qirrali tuzilma sifatida qarab, nafaqat til egalari tomonidan o'ylanadigan, balki ular o'zlari his qiladigan hayajon, baho, milliy obrazni o'z ichig olishini ko'rsatadi va konsept tuzilishida o'zgacha nuqtai nazar borligini ta'kidlaydi. Konsept markazida qadrilik turishi, u madaniyat tadqiqiga xizmat qilishi, madaniyat asosida aynan qadrilik prinsipi yotishini ham o'z fikrlarida bayon etgan.

Qolaversa, har bir konsept murakkab mental uyg'unligi, ma'naviy tuzilishidan tashqari insonni ifodalayotgan obyektga munosabati va umuminsoniy yoki umumiy, milliy-madaniy, ijtimoiy, til egalariga tegishli, shaxsiy individual komponentlarni o'z ichiga olishini ta'kidlaydi. Demak, konsept lingvomadaniyatda eng faol qo'llanuvchi birlik sanaladi. Konsept lingvomadaniy birlik sifatida u yoki bu xalq

madaniyatining o'ziga xos jihatlarini ifodalaydi.

O'zbek tilshunosligida ham "konsept" tushunchasi turli talqinga ega. Masalan, Sh.Safarov "moddiy dunyo idroki ayni paytda idrok etilayotgan predmet-hodisalar haqida tushunchaning tug'ilishini, keyinchalik ushbu tushuncha mental namunakonsept sifatida shakllanib, moddiy nom olishi"ni ta'kidlaydi.

O'.Q.Yusupov konseptni "tashqi yoki ichki dunyodagi biror bir narsa yoki hodisa haqidagi ongimizdagi bilimlar majmuasi, u haqidagi obrazlar va unga bo'lgan ijobiy, salbiy, neytral munosabatlar, ya'ni baholashlardir", deb belgilaydi. Tushuncha va konseptni farqlashda olim quyidagicha fikr bildiradi: "konsept bilan tushunchani aysbergga o'xshatish mumkin. Agar konsept aysberg bo'lsa, uning suvdan chiqib turgan qismi tushunchadir".

Yuqoridagi barcha fikrlarni o'rganish natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, konsept tushunchasi har bir shaxs uchun individual va jamiyat uchun umummilliy bo'lgan, ong, til va ruhiyatning bog'liqligida kechuvchi jarayondir.

Tilshunoslikda konsept markazida qadrilik turadi, u til madaniyat tadqiqiga xizmat qiladi, madaniyat asosida aynan qadrilik prinsipi yotadi. Har bir konsept murakkab mental uyg'unligi, ma'naviy tuzilishdan tashqari insonni ifodalayotgan obyektga munosabati va umuminsoniy yoki umumiy, milliy-madaniy, ijtimoiy, til egalariga egishli, shaxsiy-individual komponentlarni o'z ichiga oladi. Til leksikasi insoniyat madaniyatini ifodalovchi vosita sifatida dunyoning bir biridan farq qilmaydigan xalqlarida aks etgan muayyan madaniy konseptual tushunchalarni aniqlashga va mazmun mohiyatini ochib berishga yordam beradi.



Kognitiv tilshunoslikda turli olimlarning fikrlarini o'rganish natijasida aniq xulosaga kelinmagani ma'lum bo'ldi va

tilshunoslikning yanada chuqur o'rganilishi talab etiladigan mavzusi ekanligi ko'rinadi.

References:

1. Кубрякова Е.С. О когнитивной лингвистики и семантики термина когнитивны// Вестник Воронежского государственного университета. – Воронеж, 2001.90-с
2. Safarov Sh. S. Kognitiv tilshunoslik.-Jizzax: Sangzor,2006.- B.91
3. Mamatov A. E. Tilga kognitiv yondashuvning mohiyati nimada? Tilshunoslikning dolzarb masalalari: Prof. A.Nurmonov tavalludining 70 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan ilmiy-amaliy anjuman materiallari.-Andijon,2012/-B.212-219.
4. Аскольдов С.А. Концепт и слово// Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология.-М:Academia. 1997.-С.267-280
5. Ray Jakendoff, 1989: "What is a concept, that a person may grasp it". Program in Linguistics and Cognitive science Brandies University Watham.
6. George Lakoff : 1980: Metapfors We Live BY